

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi

2025 26 December

Biz bugun 38 milliondan ziyod katta xalqmiz. Mashaqqatli va sharaflı mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g'ururi baland millatimiz!

Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz. Donishmand bobolarimizning "Birlashgan — o'zar, birlashmagan — to'zar", degan hikmatli maqoli bor. Chindan ham, qarang, kimki birlashdi — hayotda o'zdi, g'alabaga erishdi. Kimki birlashmadi — to'zib, yo'q bo'lib ketdi. Tarix davomida qanday og'ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila — oilaga, qo'shni — qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak. Millati, tili va dinidan qat'i nazar, 38 millionli el-yurtimizni birlashtiradigan ulug' bir g'oya bor. U ham bo'lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir.

Mana shunday buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Shularning barchasini hisobga olib, 2026-yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", deb e'lon qilishni taklif etaman. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda hal qiluvchi bosqichga qadam qo'ymoqdamiz. Bu yo'ldagi ishlarimiz har bir soha va tarmoqda chuqur transformatsiyani talab qiladi.

Maqsadimiz aniq: yaqin yillarda daromadi o'rtadan yuqori mamlakatlar qatoriga kirish. Farg'ona vodiysidan Orolbo'yigacha, Zarafshon vohasidan Qashqadaryo va Surxondaryogacha, Toshkentdan tortib, Jizzax va Sirdaryogacha — yurtimizning qaysi hududida yashamasin, har bir fuqaromiz bugundan boshlab islohotlar natijasini kundalik hayotida yanada ko'proq his qilishi kerak.

